

KEYS METODINING MOHIYATI VA KEYS TURLARI

Tojiboyeva Zuxra Zokirjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
4-kurs talabasi

Tel: +998937015622 , tojiboyevazuxra8@gmail.com

Mamadaliyeva Nodira Isakovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, dotsent , PhD
ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0001-7074-4126>
n.mamadaliyeva@yandex.ru +99897746-52-59

Annotatsiya: Ushbu tezis keys metodining ahamiyati va keys turlari haqida yozilgan. Keys metodi yordamida o'qitish o'quvchilar o'zlashtirishiga qanday ta'sir qiladi? Keys necha xil bo'ladi? Ushbu tezisni o'qish davomida shu kabi savollarga javob olish mumkin.

Kalit so'zlar: Keys, texnologiya, Garvard metodi, klassik maktab, ijodiy ko'nkmalar

Ключевые слова: Кейс, технология, Гарвардский метод, классическая школа, творческие способности

Keywords: Case, technology, Harvard method, classical school, creative skills.

So'nggi vaqtarda "Keys-stadi" metodi xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublikamiz ta'limida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o'rinda ushbu metod (texnologiya) mohiyati haqida ma'lumotlar berilgan. "Keys-stadi" texnologiyasi (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatlari tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish)

1) o'quvchilarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nkmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya;
2) real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnologiyasi sifatida qaraladi.

"Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870-yilda AQSHning Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920-yilda qo'llanila boshlangan. Keyslarning ilk to'plami 1925-yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Ana shu vaqtidan boshlab GBM keyslarning boy to'plamini yig'di va mazkur metodni ta'limning mustaqil

konstepstiyasi darajasigacha olib chiqdi. Ayni shu sababga ko'ra keys-stadi metodini ko'pincha Garvard metodi deb ham ataladi. O'z mohiyatiga ko'ra, Garvard metodi ta'lif oluvchilarining amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta'minotdan foydalanib hal qilish bo'yicha intensiv treningidan iboratdir.

Keys-stadining ikki klassik maktabi – Garvard (Amerikada) va Manchester (Yevropada) maktablari mavjud. Garvard maktabi doirasida mazkur metod yagona to'g'ri yechimni izlashni o'rgatish metodi hisoblanib, ikkinchi maktab (Manchester) keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining ko'p variantlilagini taklif qiladi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matnni va ko'plab chizmalarni o'z ichiga oladi. Yevropa keyslari xajmi birmuncha kamroq. Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni o'rganishga o'quv vaqtining o'rtacha 25% dan 90% gacha bo'lgan qismi ajratiladi. Masalan, Chikago universiteti biznes-maktabida o'quv vaqtining 25%i keyslar ulushiga, Kolumbiya universitetida – 30%, Uortonda esa – 40% iga to'g'ri keladi. Mashg'ulotlarni ushbu metod bo'yicha o'tkazishga ajratiladigan soatlar soni bo'yicha uning "ilk ixtirochisi" – Garvard yetakchilik qiladi. Oddiy tinglovchi GBMDa o'qish vaqtida 700 tagacha keyslarni ko'rib chiqadi va buning uchun o'quv vaqtining 90% gacha qismini sarflaydi. Bunda shunday aniqlik kiritish kerak: moliyaviy fanlarga ixtisoslashgan maktablarda keyslar salmog'i asosiy fanlar – menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish va shu kabilardan iborat maktablardagiga nisbatan ancha kamdir. Mamlakatimizdagi ta'lif sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruva sohasida qo'llanila boshlandi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarining keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilmoqda.

Keys metodi qo'llanilganda o'quvchilarda:

Tahliliy ko'nikmalar – ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarurligi darajasini aniqlash, tahlil qilish, taqdim etish. Shaxs bu hollarda aniq va mantiqiy fikrlay olishi kerak; **Amaliy ko'nikmalar** – muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llayibilish; **Ijodiy ko'nikmalar** – mantiqiy yondashuv asosida muammoni yechish muhim emas, balki ijodiy yondoshib muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish; **O'z-o'zini tahlil qilish** – bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilish, boshqalarga namuna bo'la olish kabi ko'nikma va malakalar rivojlanadi.

Muloqot ko'nikmalar – fikrlash qobiliyati, o'z fikrini erkin bayon eta olish, o'zgalar fikrini tinglash va munosabat bildira olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Keys metodining mohiyati shundan iboratki, an'anaviy darslardan biroz uzoqlashgan holda yangi zamонавиу texnologiyalardan foydalanib fanni o'quvchilarga tushunarliroq va qiziqarliroq qilib yetkazib berish. Bunda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida o'quvchi ko'proq fikrlaydi va mehnat qiladi. O'qituvchi faqat yo'naliш beradi xolos. O'quvchilar mustaqil fikrlab, izlanib, kreativ yondashgan holda keys topshirig'ini bajaradilar. Keys metodining umumiy tavsifnomasi bu metodning mohiyati, belgilari va didaktik o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ularni qisqacha ko'rib chiqamiz.

Keys metodining mohiyati shundan iboratki, ko'rib chiqilayotgani muammoli vaziyat o'quvchilarga quyidagilar taklif qilinadi:

- 1) keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o'zlashtirilishi va qo'llanilishi lozim bo'ladijan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o'tkazish;
- 2) muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;
- 3) taklif etilgan muqobil jihat(alternativ)larni baholash va ular orasidan qo'yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;
- 4) tanlangan muqobil usul (alternativ)ni amalga oshirish bo'yicha aniq; yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

Kimyo fanidan keys turlari:

Turi	Tavsifi	Keys topshirig'i mazmuni
Amaliy	Kimyoni qo'llash mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatlar	Keys topshirig'i matn ko'rinishida beriladi, unda ma'lumotlar keragidan ko'p yoki yetishmasligi ham mumkin. Muammoning muqobil yechimlari bir nechta bo'lishi mumkin. Ularning orasidan eng maqbulini tanlash talab qilinadi

O'rgatuvchi	Kimyoga doir o'quv vaziyatlari va masalalari	Keys topshirig'i kimiyoning biror bo'limi doirasida matn ko'rinishida beriladi, bir-biri bilan bog'liq va qo'yilgan masala yechimiga olib keluvchi bir necha kichik masalalar ro'yxati keltiriladi
Tadqiqot	Vaziyatning kimyoviy modelini qurish va tadqiq etish	Keys topshirig'i matn ko'rinishida beriladi. Unda ma'lumotlar keragidan ko'p yoki yetishmasligi ham mumkin. muammoning bir nechta muqobil kimyoviy modellari va ularga mos yechimlari bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Meliboyeva.S. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar
2. Tolibov Saidjon G'olibovich Navoiy davlat pedagogika institutining Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish metodikasi (Biologiya) yo'nalishi 2-kurs magistranti. Keys-stadi innovatsion o'qitish texnologiyasi sifatida
3. F.A. Astanova A. Abduqodirov Case- Study uslubi Toshkent 2018 yil
4. Umurzaqova K.U Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2-kurs magistranti. Keys-stadi texnologiyasining rivojlanish tarixi
5. Tursunov Farxod Baxodir o'g'li Cho'lliboyeva Latofat Rashidovna Termiz shahar 13 –umumiyl o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchilari. Dars jarayonlarida keys-stadi metodidan foydalanishning ahamiyati. Termiz-2023.